

Michigan universiteti talabalari tashrifi kutilmoqda

Xalqaro hamkorlik bo'limi boshlig'i Sh.Raxmonov Michigan universitetining Yevropa va Yevroosiyo bo'limi bilan hamkorlikda 2021-yildan boshlab o'zaro talabalar almashinuvini yo'lga qo'yish bo'yicha kelishib olinganligini aytdi. Michigan universitetining yer yoki suv resurslarini boshqarish yo'nalishda tahsil olayotgan talabasi TIQXMMIga 1 oylik stajirovka (internship)ga kelishi mumkin. Qo'shimcha ravishda o'zbek yoki rus tilini o'rganish va O'zbekistonning tarixiy shaharlariga sayohat qilish uchun sharoitlar yaratiladi. 2021-yilda pandemiya sababli, Michigan universiteti talabasining stajirovkasi virtual (onlayn) tarzda amalga oshiriladi. Yevropa va Yevroosiyo bo'limi xodimi Birgitta Koxler bilan onlayn uchrashuvda bir yilda bir marotaba Vayzer (Weiser fellowship) dasturi orqali Michigan universitetiga TIQXMMI professor-o'qituvchisini 1 oylik ilmiy stajirovkaga yuborish uchun kelishib olindi. Safar bilan bog'liq xarajatlar Michigan universiteti tomonidan qoplanadi. Ma'lumot uchun: Michigan universiteti (University of Michigan) AQShning yetakchi universitetlaridan biri bo'lib, QS xalqaro universitetlar reytingida 24 o'rinni egallagan. Unda o'rtacha 46 000 nafar talaba tahsil oladi. Michigan universiteti Ilmiy tadqiqot universitetlar ichida AQShda yetakchi hisoblanadi.



TIQXMMI matbuot xizmati